



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZARIY, AMALIY TILSHUNOSLIK VA TIL O'QITISH METODIKASI



MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ONLAYN
ILMIY ANJUMANI
MATERIALLARI

Termiz - 2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“NAZARIY, AMALIY TILSHUNOSLIK VA
TIL O‘QITISH METODIKASI”**
mavzusidagi respublika onlayn ilmiy anjumani materiallari

Termiz, 2021-yil, 4-noyabr

Termiz-2021

Ushbu to‘plam Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi va o‘zbek tili va adabiyoti kafedralari hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 4-oktabrdagi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni (21.10.2019 y. N PF-5850) va 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaldagi ijrosiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Nazariy, amaliy tilshunoslik va til o‘qitish metodikasi” mavzusidagi respublika onlayn ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari hamda magistratura va bakalavriat talabalari foydalanishlari mumkin.

Maqolalarning ilmiy saviyasi, keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir:

Sh. Maxmaraimova

To‘plam uchun mas’ullar:

Sh.Choriyev

Sh.Turdiqulov

Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti Kengashining 2021-yil 16-oktabrdagi 3-son qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

UDK: 8.1751, 81'1, 81'22, 81'322, 81'276.1, 81'28, 811.

O‘zbek tili va adabiyot o‘qitish metodikasi

MAKTAB ONA TILI DARSLARINING ADABIYOT BILAN INTEGRATSIYASINI TA’MINLASH TAJRIBASIDAN (10-sinf misolida)

Dilorom Nigmatovna Yuldasheva,
Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o‘zbek
tilshunosligi kafedrasida professori
diloromxon.68@mail.ru

10-sinfning birinchi choragida “Nutq uslublarida qo‘llaniluvchi leksik vositalar” mavzusini o‘tishda o‘quvchilarning nutq uslublarida qo‘llaniluvchi leksik vositalar (sinonimlar, omonimlar, uyadoshlar va antonimlar) bo‘yicha olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asari ustida ishlash orqali mustahkamlash imkoniyati mavjud. Bu imkoniyat natijasida o‘quvchilarni go‘zallikka oshnolik ruhida tarbiyalash; o‘quvchilarda nutq madaniyatini oshirish mumkin.

Dastlab o‘quvchilar hukmiga videoproektor orqali mavzuga oid tayanch tushunchalar (*nutq uslublari (so‘zlashuv, publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy), leksik vositalar (sinonimlar, omonimlar, uyadoshlar va antonimlar), so‘z va uning lug‘aviy ma‘nosi, nutq madaniyati*) havola etiladi.

O‘quvchilarga bir necha kun avval Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asarini o‘qib chiqish topshirig‘i beriladi va dars boshidayoq bugungi dars shu asardan olingan parchalar ustida ishlash orqali tashkil etilishi aytiladi. Sinf o‘quvchilari (o‘quvchilar soniga qarab) 4 guruhga bo‘linadi va ularga nom tanlanadi. Nomlar asar qahramonlari nomi bilan atalishi ham mumkin: 1-guruh: “Bambur”, 2-guruh: “Nargiz”, 3-guruh: “Yovungul”, 4-guruh: “Atirgul”.

Har bir guruh o‘quvchilarining mavzu yuzasidan berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklari “**Aqliy hujum**” usuli asosida aniqlanadi. Bunda guruhlarga o‘qituvchi tomonidan tezkor savollar beriladi.

1. Bambur va Nargiz, Lola va Atirgul, Navro‘zgul va Sariqgul, Oq atirgul va Yovungullarning yovuzlik timsollari bo‘lmish Bo‘ron bilan Xorud va ularning dajjollariga qarshi kurashini, galabasini, jannatmisol vodiylarida abadiy omonlik va farovonlik o‘rnatganliklarini kuylagan asar qaysi?

2. Asar voqealari qayerlarda bo‘lib o‘tadi?

3. “Kashmir qo‘shig‘i” asarida mard yigitlar, vafodor qizlar ko‘z oldimizda qanday obrazlar misolida gavdalanadi?

4. “Kashmir qo‘shig‘i” asari qanday boshlanadi?

5. “Kashmir qo‘shig‘i” asarida “... eng go‘zal oq shohi ko‘ylagi ustidan zangor baxmal nimchasini kiyib olgan, boshiga esa, barq urib ochilgan gulning barcha go‘zalligini aks etdiruvchi jajjigina shinam va oppoq durracha o‘ragan,

quloqlariga endigina ochilgan guldan isirg‘a taqib, yasanib, yoshlik va go‘zallik sevinchlariga, orzu-umidlariga mast bo‘lib, Gullar bog‘ida tovlanib turgan” kim?

Guruhlar javoblariga ko‘ra baholanadi.

Dars **“Jadvalni to‘ldir”** o‘yin-topshirig‘i bilan davom ettiriladi. O‘quvchilar e‘tibori iqtidorli adib Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asaridan olingan badiiy uslubdagi matnlarga qaratiladi va har to‘rtala guruhga quyidagi topshiriqlar topshiriladi:

“Bambur” guruhiga: (1-matn) Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug‘urlashib bahs qilishar, gullar Nargizga tasalli bersalar, bulbullar chax-chaxlab Bamburni Gullar bog‘iga chaqiradilar. Xullas, qo‘shiq yana avjiga mindi. Qush tilini biluvchilar, gul tilini tushunuvchilar ularning sehrgar qo‘shig‘ini bunday tarjima qiladilar:

*Olamda gullar yashar,
Bog‘larga jamol bo‘lib,
Gulzorlarga yarashar
Ular husni xol bo‘lib.
Lola gullarning shohi,
Kiygani qirmiz shohi.
Chamandagi atirgul
Lola qizning hamrohi.*

*Bo‘tako‘zlar saf-safdir,
Saf-saf-u betarafdir!
Arg‘uvon gullar esa,
Gulistonga sharafdir.
Gullar ko‘p, chechaklar ko‘p,
Qo‘shiqlar, ertaklar ko‘p.
Boisi shu, har gulning
Qalbida tilaklar ko‘p.
Ammo Nargiz ertagi,
Uning ishq, tilagi
Xushbo‘y Gullar bogining
Eng chiroyli chechagi.
Kelinglar, go‘zal gullar,
Keling, oshiq bulbullar.
Shu sevgini kuylaylik,
Orom olsin ko‘ngillar!
Nargizning qo‘shig‘ini–
Bambur nogoh eshitsin,
Ma‘shuqa oshig‘ini –
Topsin, murodga yetsin.*

“Nargiz” guruhiga: (2-matn) Bambur sabrining nihoyasi bitdi. Ayriliq alangasidan toqati toq bo‘ldi. Ozib-to‘zib ketdi. Axiri muhabbatlarini o‘zining so‘nmas yog‘du ipaklari rishtasi bilan yo‘rgaklagan oftobga iltijo qildi:

*Oftob,
Oftob,
Qaydasan, oftob?
Qani Nargiz,
Qani u mohtob?
Qani o‘zing yoygan poyondo?
Oftob,
Oftob,
Axir, ber javob!
Azobimga tezroq chora qil,
Evuzlarning yuzin qora qil!
Nargizimni ko‘rsat,
Avayla,
Bulutlarni pora–pora qil!
Nargiz,
Nargiz,
Sevgim yo‘ldoshi!
Hayotimning avvali, boshi!
Ovoz bergil,
Ovoz,
Qaydasan?
Nargiz,
Nargiz,
Baxtim quyoshi!*

Oftob oshiq Bambur nolasini eshitdi, javobga shaylandi, bulutlarni yirtib, unga yo‘l ko‘rsatmoqqa shoshildi. Lekin Bo‘ron bilan Xorud boshliq qora kuchlar qo‘ymadi. Ko‘kda to‘polon turdi, bulutlar galasi jumbishga keldi, oftob ularni alg‘oq-dalg‘oq qilmoqchi edi. Dono Bamburga shuning o‘zi ham bas edi. Dushman Gullar vodiysiga, nargizlar bog‘iga boradigan yo‘lni o‘zi topib berdi. Bambur otini o‘sha to‘polon turgan osmon ostiga qarab burdi. Tog‘lar oshdi, daryolar oshdi, cho‘llar, sahrolar o‘tdi, adirlar va qirlarni ortda qoldirdi. Nihoyat yor visolini topib keldi...

Gullar vodiysi tepasiga kelganida kimningdir faryodi qulog‘iga eshitildi. Bu ovoz juda yiroqdan kelardi. U ushbu ovoz Nargizning ovozigacha o‘xshab ketganidan dahshatga keldi...

“Yovungul” guruhiga: (3-matn) Bambur qizlarni samimiy tabrikladi. Qip-qizil shohilardan kiyingan Lola o‘rtaga tushdi-da, barcha qizlarning sevimli ashulasini boshlab yubordi. Ularning qo‘ng‘iroq ovozlari, hayotbaxsh kuylari g‘am-g‘ussani unuttirib yubordi. Do‘stlar hayot va sevgi tantanasini tarannum etdilar.

*Salom, sevgi, salom, saodat,
Salom, hayot, salom, halovat!
Salom senga, hayot oshig‘i,
Parvoz etsin hayot qo‘shig‘i!
U, bog‘lardan bog‘larga o‘tsin,
Yovlar bag‘rin sadpora etsin!
... Salom, sevgi, salom, saodat,
Salom, hayot, salom, halovat!
Salom senga, hayot oshig‘i,
Parvoz etsin hayot qo‘shig‘i!
Uni tinglab uyg‘onsin gullar,
Qaytib kelsin qushlar, bulbullar!*

Qo‘shiq sadosidan chamanlar jonlandi. Zulmat yo‘qolib, nur yoyila boshladi. Ucha-ucha qushlar qaytib keldilar, bog‘lar yana avvalgiday qushlar ovozigiga to‘ldi. Qushlar ham, gullar ham, bulbullar ham Nargiz bilan Bambur sevgisini, Gullar bog‘i oromini kuylar, himoya qilar, himoya qilganda ham yakka, tarqoq holda emas, balki birlashib, uyushib himoya qilish uchun tayyor ekanliklarini kuylardilar.

“Atirgul” guruhiga: (4-matn) Qovjirab qolgan xas-xashaklardan yasalgan Xorud ham, boyagina chiranib turgan Bo‘ron ham endi ojiz. Bo‘ron endi chaqmoq va momaqaldiroqlari bilan, jala va do‘llari bilan, dahshatli shamol-to‘poloni bilan tahdid qilolmay qoldi. Ular suvga tushgan mushukday ko‘rinardilar. Ularning barcha kiyimlari endi motamsarolikni eslatardi.

Bu hayot g‘alabasi, sevgi tantanasi edi! Qora kuchlar yengilishi bilan Gullar bog‘i yana yashnab ketdi. Mardona kurashib Xorud bilan Bo‘ronni yenggan, ozod hayot va baxtli sevgiga muyassar bo‘lgan asl do‘stlar qo‘lga kiritilgan g‘alabani tantana qildilar. Baland tog‘larning yon bag‘irlarida kuylar yangradi, raqs boshlandi. Lola o‘yin boshlab berdi, oq-qizil Atirgul ham, Navro‘zgul ham, Yoshlik guli ham, Nargiz ham o‘yinga qo‘shildilar. Zafar shodiyonasi bahor qo‘shig‘iga ulanib ketdi...

Yana bahor, mislsiz go‘zal bahor keldi. Barcha gullar, chechaklar, daraxtlar, maysalar, nihollar yana ko‘karib, o‘sib, kuch yig‘a boshladilar, ilgarigi bir shox o‘rnida endi ikki-uch shox o‘sib chiqdi, ilgarigi bir yaproq o‘rnida, endi gujum-g‘ujum barra yaproqlar paydo bo‘ldi, ilgarigi bir g‘uncha ochilgan yerda endi o‘nlab rang-barang g‘unchalar yetildi; maysalar ham oltin tuproqning mo‘l-ko‘l ozuqasi – kulib turgan quyoshning hayotbaxsh nurlaridan bahra olib, qulf urib yashnadilar.

Gullar bog‘ining ilgarigi bir husniga o‘n husn qo‘shildi, toshlar orasidan sizib chiqqan zilol buloqlar sho‘x-sho‘x qo‘shiqlar aytib, yana gullarni bahramand qildilar. Vodiyni kesib o‘tgan soy yana to‘lib-to‘lib oqdi va barcha o‘simliklar tomiriga hayot bag‘ishladi.

1-topshiriq: Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Ajratilgan so‘zlarning ma’nodoshlarini topib jadvalga joylashtiring.

fe’l so‘z turkumidagi ma’nodosh so‘zlar	ot so‘z turkumidagi ma’nodosh so‘zlar	sifat so‘z turkumidagi ma’nodosh so‘zlar	ravish so‘z turkumidagi ma’nodosh so‘zlar	olmosh so‘z turkumidagi ma’nodosh so‘zlar
<i>chaqirmoq, chorlamoq;</i>	<i>sevgi, ishq, muhabbat;</i>	<i>go‘zal, chhiroyli;</i>	<i>kop, mo‘l; noxos, bexos;</i>	<i>u, bu, shu;</i>

2-topshiriq: Matndagi zid ma’noga ega bo‘lgan juftliklarni jadvalga joylashtiring.

fe’l so‘z turkumidagi zid ma’noli so‘zlar	ot so‘z turkumidagi zid ma’noli so‘zlar	sifat so‘z turkumidagi zid ma’noli so‘zlar
<i>chug‘urlashmoq-jim turmoq, tasalli bermoq-dilini xufton qilmoq, yashamoq-so‘lmoq, avjiga minmoq-pasaymoq...</i>	<i>ishq-nafrat, sadoqat-xiyonat..</i>	<i>oq-qora, saf-saf-tarqoq..</i>

3-topshiriq: Matndagi uyadosh so‘zlarni jadvalga joylashtiring.

fe’l so‘z turkumi uyasidagi so‘zlar	ot so‘z turkumi uyasidagi so‘zlar	sifat so‘z turkumi uyasidagi so‘zlar
Aytmoq (<i>demoq, bildirmoq, tarannum, chug‘urlashmoq, chaxlamoq...</i>)	Gul (<i>nargiz, lola, atirgul, yoshlikgul, navro‘zgul, bo‘tako‘z, arg‘uvon...</i>)	Go‘zallik (<i>jamol, husni xol....</i>) Rangin (<i>qizil, qirmiz, oq, arg‘uvon, yashil...</i>)

4-topshiriq: Matndagi shakldosh so‘zlarni quyidagi jadvalga joylashtiring:

fe’l	ot	sifat	son	ravish	olmosh
	barra	barra (yaproqlar)	bir	bir	
I. qulf urib II. qulf urib	I.bog‘ II.bog‘				
	ayoz	ayoz			

O‘quvchilarning javoblari teshiriladi, berilgan javoblar o‘zlariga izohlatiladi va baholanadi.

O‘quvchilar tomonidan mavzu qanchalik o‘zlashtirib olinganini tekshirib ko‘rish uchun guruhlar o‘zaro matnlarni almashtiradilar va bir-birlariga shu matnlardan kelib chiqqan holda savollar berishadi. Shu asnodagi savol-javob orqali

guruhlararo ichki nazorat o‘tkaziladi. (O‘quvchilarning javoblari baholanib, ballar hisoblab boriladi.)

Keyingi bosqichda o‘quvchilar bilimi **test** topshiriqlari orqali mustahkamlanadi.

Dars oxirida har bir guruh nutqiy uslublarda qo‘llaniluvchi leksik vositalar haqida xulosa aytadi, xulosalar ham baholanadi.

Guruhlarning, guruhdagi har bir a‘zoning ballari sarhisob etilgach, g‘oliblar aniqlanadi va o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasab, o‘quvchilarning faoliyatiga baho beradi, o‘quvchilarning darsdagi ishtiroki xususida o‘z fikrini bildiradi.

Sh.Rashidovning “Kashmir qo‘shig‘i” asaridan parcha ko‘chirish va parcha tarkibidagi ko‘pma’noli so‘zlarning tagiga chizish uy ishi sifatida beriladi.

Adabiyotlar

1. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidov S., Mannopova D. Ona tili Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 10 - sinfi uchun darslik. I qism. –Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 98 b.

2. Рашидов Ш.Р. Кашмир қўшиғи. Қисса. – Тошкент: Ёш гвардия, 1978.–82 бет.

ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ДАРСЛАРДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНИШИ

Абдуллаева Нилуфархон Махамаджановна

Низомий номидаги Тошкент давлат
педагогика университети

Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
anilufar77@yandex.com

Республикамизда таълим-тарбия сифати, хусусан, бошланғич таълим самарадорлигини ошириш, рақобатбардош бошланғич таълим ўқитувчиларини тайёрлаш тизимини такомиллаштириш, бошланғич таълимнинг интеграцион ўқув-услубий таъминотини мустаҳкамлашга доир қатор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Шу билан бирга, интеграллашган таълим технологияларини қўллашнинг методик механизмларини аниқлаштириш, интеграцион машғулотларни ташкил этиш ва ўтказишнинг педагогик шарт-шароитларини такомиллаштиришга алоҳида зарурат мавжуд. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “Ёш авлоднинг ижодий ва интеллектуал салоҳиятини қўллаб-қувватлаш ва рўёбга чиқариш, болалар ва ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, уларни жисмоний тарбия ва спортга кенг жалб этиш” [1, Б. 4]. каби муҳим вазифалар белгилаб берилди. Бу эса бошланғич таълим самарадорлигини оширишда интеграллашган ўқитиш

MUNDARIJA

Termiz davlat universiteti rektori, Oliy Majlis Senati a'zosi, professor 5
A.R.Maraximovning tabrik nutqi

Nazariy va amaliy tilshunoslik

Каримов С. Ўзбек тилшунослигида пунктуация муаммоларининг ўрганилиши	7
Ҳакимов М., Бурханова М. Лисоний ва нолисоний парадигмалар дифференциацияси	11
Жабборов Х. Суғориш лексикасига оид халқона сўзлар семантикаси	16
Оразымбетова З., Мухиятдинова Т. Язык и стиль аналитических жанров в газете (на основе каракалпакской периодической печати)	18
Умуркулов Б. Бадиий наср ва адабий тил	23
Махмараимова Ш. Маънони таркиб топтирувчи компонентлар	26
Ёкубов Ш. Алишер Навоий асарларида баъзи сеҳрли сонларнинг қўлланиши	32
Жабборов Э. Алишер Навоийнинг тиллар қиёси ҳақидаги қарашлари	35
Тоирова Г. Ўзбек тили миллий корпусининг онлайн вариантнинг тузилиши хусусида	40
Алламбергенова Г. Фраземалардың сөйлеу тилине тән функциялары (И.Юсупов деретпелери тийкарында)	43
Исломов И. Ўзбек тили географик терминларининг ўз қатлами ва унда маъно ўзгариши	48
Umurkulov Z. Metafora olamni idrok etishning muhim vositasi	52
Shukurov A. She'riy matnda og'zaki nutq vositalari	57
Юлдошева Н. Ўзбек тилининг синтактик талқини ва ундаги муаммолар хусусида	60
Амонтурдиева Ш. Ёзма диний матнларнинг имловий хусусиятлари	63
Begmatova G. Jahon milliy korpuslarida idiomatik birliklarning berilishi	66
Amonturdiyev N. “Devonu lug'atit-turk” asarida to'y va maishiy hayot bilan aloqador etnografizmlarning semantik tahlili	68
Марқаев К. Этнонимлар асосида яратилган антропонимлар	
Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг ўрганилиши	73
Raximova U. O'zbek dostonlarida qofiyaning lingvopoetik tadqiqi	77
Рахматова З. Ўзбек тилида болалар нутқини ўстириш воситалари. луғатларнинг яратилганлик ҳолати	80
Турдиқулов Ш. <i>Вахшивор</i> теотопоними хусусида	84
Бурханова М., Газиёва М. Коммуникатив парадигма ва гнесологик структура	87
Сайдуллаева Р. Тарихий-бадиий матнларда ономастик ва антропонимик бирликларни ўрганилиш тарихидан	92
Холмуродова М. Эркин аъзам киноқиссаларида новербал воситаларнинг прагматик тавсифи	98
Турдимуродов С. Изоҳли луғатларда сифат метафорик эвфемик маъноли лексемаларнинг грамматик хусусиятлари	102
Худайназарова Ў. Ўзбек лингвомаданиятида мифологик образлар талқини	107
Ҳамроева Н. Зиддиятли нутқий мулоқот (конфликтли дискурс) ва унинг социолингвистик табиати	110
Аҳмедов Ҳ. Халқ дostonлари тили ва фразеологиясининг ўрганилиши	113
Қодирова З. Махсулот ёрлиқлари – рекламанинг бир кўриниши	121
Хайитова Ф. Топонимларнинг лексик о'zgarishi	124

Очилова М. Электрон луғат – лексикография ривожининг янги босқичи маҳсули	129
Ergasheva D. Ruhiy holatni ifodalovchi matnlarning sintaktik qurilishi (ko‘chirma va muallif gapi)	137
Курбаназарова Н. Этнографизм – тил тизимидаги миллий хосланган луғавий бирлик	140
Xidirova I. Qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi oila a‘zolar nutqining gender (jins) jihatdan xoslanishi	143
Allamuratova X. O‘zbek antroponimikasida kontaminatsion nomlar, ularning yasalishi	147
Amini Aziz Ahmad. Dehqonchilik mahsulotlari nomlari va ularning lisoniy talqini	151
Temirova K. Inson xarakter-xususiyatini ifodalovchi iboralar	155
Раҳмонов Б. Этнографизм ва ёндош ходисалар талқини	162
Rahimova Z. Argo ijtimoiy chegaralangan leksik birlik sifatida	166
To‘rayeva Z. “Qunduz bilan Yulduz” dostonidagi metaforalarning lingvopoetik xususiyatlari	171
Nazarov Z. O‘zbek tilshunosligida morfologik birliklarning polifunksional jihatlari tadqiqi	173
Boysariyeva S. Oydin Hojiyevaning ko‘chimlardan foydalanish mahorati	177
Райимов Қ. Тил ва нутқ парадигмаларнинг систем таҳлили	180
Muhammad Humayun Nadim. Afg‘oniston o‘zbeklari to‘y-marosimlarida osh leksemalari etnonimlarining lisoniy talqini	185
Юсупова Д. Мастерство использования слова	188
Sobirov M. O‘zbek tilshunosligida o‘quv lug‘atchiligi masalalari	193
Ro‘ziyev E. “Devonu lug‘ati-t-turk” asaridagi maqollarni tadqiq etishda zamonaviy yondashuvlar	196
Abdualimova G. Fe‘l nisbat kategoriyasining davrlararo va turkiy tillararo solishtirmasi	200
Shodmonaliyeva Y. Tasdiq va inkor kategoriyalarining namoyon bo‘lishi xususida	206
Xursanov M. Onomastika va urbanonimlar	209
Tursunov O. Sport leksikasida tub va o‘zlashma so‘zlar	211
O‘ralova Ch. Saida Zunnunova she‘riyatida leksik takrorlar	213
Salohiddinova N. O‘zbek diniy matnlarida qo‘llaniluvchi frazeologik birliklar	215
Tursunov J. Ta‘limiy lug‘atlarning tilshunosligimizda tutgan o‘rni	217
Qayumova D. Surxondaryo o‘zbek shevalari leksikasi xususida	220
Xoliyarova Sh. Abdulla Qodiriy asarlaridagi antroponimlarning lingvopragmatik tadqiqi	

O‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi

Yuldasheva D. Maktab ona tili darslarining adabiyot bilan integratsiyasini ta‘minlash tajribasidan (10-sinf misolida)	223
Абдуллаева Н. Интеграциялашган дарсларда ўқувчиларнинг интеллектуал ривожланиши	228
Sattorov Sh. O‘zligimiz timsoli bo‘lgan tilimiz ham tariximiz, ham taqdirimizdir	232
Norqulova Sh. Maktabda mumtoz adabiyotni o‘qitish muammolari	237
To‘yeva Z. Ona tili mashg‘ulotlarida ta‘limiy bayondan foydalanish	239
Мустафокулов Р.Б., Темирова К.Б. Имом Ат-Термизийнинг таълимий қарашлари	242
Kattayeva F. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani shakllantirishda badiiy adabiyotning o‘rni	245